

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ASRORXO‘JAYEVA MA‘MURAXON ABRORXO‘JA QIZI

O‘ZBEKISTONNING KO‘P TOMONLAMA DIPLOMATIYASIDA
YUNESKO BILAN HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining
siyosiy muammolari

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of the Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
in Political Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
политическим наукам**

Asrorxo‘jayeva Ma‘muraxon Abrorxo‘ja qizi

O‘zbekistonning ko‘p tomonlama diplomatiyasida YUNESKO bilan hamkorlik
istiqbollari.....3

Asrorkhujaeva Mamurakhon Abrorkhuja kizi

Prospects for Cooperation with UNESCO in Multilateral Diplomacy of
Uzbekistan.....26

Асрорходжаева Мамурахон Аброрходжа кизи

Перспективы сотрудничества с ЮНЕСКО в многосторонней дипломатии
Узбекистана.....46

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....51

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ASRORXO‘JAYEVA MA’MURAXON ABRORXO‘JA QIZI

O‘ZBEKISTONNING KO‘P TOMONLAMA DIPLOMATIYASIDA
YUNESKO BILAN HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining
siyosiy muammolari

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ss280 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus, (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuos.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Sayfullayev Durbek Baxtiyorovich tarix fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Kasimova Nazokat Anvarovna siyosiy fanlar doktori, professor Jurayev Qodir Asadovich siyosiy fanlar doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «13» iyul soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 - yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2024 - yil «___» _____ dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).

N. A. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi v.v.b., siyosiy fanlar doktori, professor v.b.

D. I. Madaminova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, siyosiy fanlar doktori, dotsent

E. S. Sultanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan turli ziddiyatlar, geosiyosiy qarama-qarama qarshiliklar tufayli bashariyat taqdiriga daxldor bo‘lgan masalalarda o‘zaro muloqot va ishonchli hamkorlikni mustahkamlash, ko‘p tomonlama diplomatiyani hayotga tatbiq etish davr talabiga aylanmoqda. Ushbu murakkab vazifani yo‘lga qo‘yishda YUNESKO tashkilotining o‘rni va imkoniyatlaridan kengroq foydalanish, ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik aloqalarini rivojlantirish jahon hamjamiyati kun tartibidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lmoqda.

Bugungi kunda global tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash jarayonlarida ta‘lim tizimlarini isloh qilish va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan YUNESKOning uzoq yillik tajribalaridan foydalanishi bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda YUNESKO doirasidagi ko‘p tomonlama diplomatiyani izchil yo‘lga qo‘yish, xalqaro ahamiyatga molik bo‘lgan madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, davlatlararo fan, ta‘lim va madaniyat sohasidagi institutsional hamkorlikning ilmiy-metodologik asoslarini tadqiq etish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston tashqi siyosatida ko‘p tomonlama madaniy diplomatiyani amalga oshirishda YUNESKO tashkiloti muhim o‘rin tutadi. Xususan, YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasini 2025-yilda qadim Samarqandda o‘tkazish to‘g‘risidagi tarixiy qarorning qabul qilinishi ham buning yorqin ifodasi hisoblanadi. Ushbu muhim global tadbirning ilk marta O‘zbekistonda o‘tkazilishi Markaziy Osiyo mintaqasining ulkan sivilizatsion salohiyati, jumladan mamlakatimizning jahondagi ko‘p tomonlama diplomatik jozibasini namoyish etishga xizmat qiladi. “So‘nggi yillarda YUNESKO bilan ta‘lim, fan, madaniy meros, axborot va kommunikatsiya sohalarida hamkorligimiz jadal rivojlanib bormoqda. Mazkur tashkilot ko‘magida yurtimizdagi butunjahon madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash, qadimiy Buyuk ipak yo‘lida mavjud bo‘lgan madaniy aloqalarni qayta tiklash, ta‘lim tizimi sifatini oshirish va barkamol avlodni tarbiyalash, O‘zbekistonda yoshlarning mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha qator muhim dastur va loyihalar samarali amalga oshirib kelinmoqda”¹. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonning YUNESKODagi ko‘p tomonlama diplomatiyasi amaliyotining yutuqlari va mavjud kamchiliklarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018-yil 5-aprel,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta‘lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi. 15.11.2022. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/5696>

PF-5400-son), “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2019-yil 15-noyabr, PF-5876-son), “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022-yil 28-yanvar, PF-60-son), ““O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi (2023-yil 11-sentyabr, PF-158-son) farmonlari, shuningdek, «2025-yilda YUNESKO Bosh Konferensiyasi 43-sessiyasining Samarqand shahrida o‘tkazilishiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi (2024-yil 15-mart, PQ-128-son) «O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida»gi (2018-yil 28-noyabr, PQ-4038-son), “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020-yil 16-aprel, PQ-4680-son) qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning bajarilishiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy, rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston Respublikasi va YUNESKOning madaniy merosni muhofaza qilish, fan va ta’limni rivojlantirish kabi gumanitar sohalardagi ko‘p tomonlama diplomatik aloqalari, o‘zaro hamkorligi va munosabatlarning turli yo‘nalishlari olimlar tomonidan qisman tadqiq etilgan bo‘lib, natijalari ularning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Ayni vaqtda YUNESKOning xalqaro munosabatlarda tutgan o‘ziga xos o‘rni, ayniqsa O‘zbekiston Respublikasi bilan ko‘p tomonlama diplomatik aloqalarining rivojlanishini tadqiq etish borasida maxsus izlanishlar bo‘lmagani aniqlandi.

Dissertatsiyada mavzuga oid ilmiy ishlar uchta asosiy guruhga ajratilgan:

Birinchi guruhni O‘zbekistonning ko‘p tomonlama diplomatiyasi, O‘zbekiston va YUNESKO hamkorligining madaniy, diniy, huquqiy va boshqa sohalari borasida olib borilgan tadqiqotlar tashkil etadi. O. Abdimo‘minov, A. Ahmedov, L. Babaxajayeva, M. Baxadirov, Q. Jo‘rayev, I. Mavlanov, S. Mirkasimov, A. Mo‘minov, S. Pulatova, T. Qurbonov, M. Rasulov, M. Rahimov, D. Sayfullayev, M. Tojiboyev, M. Tursunova, G. Xidoyatov, M. Hashimov, S. Sharapova² kabi olimlarning ilmiy ishlari ana shular jumlasidandir. Ularning aksariyatida hamkorlikning dastlabki davri yoritilgan bo‘lib, keyingi tadqiqotlarda esa munosabatlarning Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimida bilvosita tadqiq etilgani kuzatiladi.

Ikkinchi guruh Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo va boshqa davlatlar olimlarining MDH va YUNESKO munosabatlariga doir ilmiy ishlaridan iborat

² Aytoreferatda nomlari keltirilgan bu va boshqa mualliflarning tadqiqot ishlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

bo'lib, ularda ushbu xalqaro tashkilotning MDH davlatlari bilan Sovet Ittifoqi tarqalganidan to hozirga qadar davom etayotgan munosabatlari, mazkur davlatlarning tashqi siyosatida xalqaro tashkilotlar doirasidagi ko'p tomonlama diplomatiyasi, madaniy diplomatiya hamda madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha YUNESKO bilan birgalikda to'plagan tajribasi bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilingan. V. Yegorov, A. Demina, Yu. Zinovskiy, T. Zonova, A. Iznaurov, O. Lebedeva, V. Malgina, A. Melvil, O. Melnikova, E. Mexdiyev, V. Popov, V. Rodionova, I. Tyulin, T. K. Fedotova kabi olimlarning ilmiy ishlarini ularga misol qilib keltirish mumkin.

Uchinchi guruh olimlarining ko'p tomonlama diplomatiyaning xalqaro munosabatlardagi roliga oid nazariy tahlillari hamda YUNESKOning faoliyati, ushbu xalqaro tashkilotning unga a'zo davlatlar bilan hamkorligiga doir ingliz va boshqa tillardagi nashrlardan iborat. Xalqaro munosabatlarda ko'p tomonlama diplomatiyaning nazariy asoslari, funksiyalari va roli borasida E. Bichet, Ch. Jonson, V. Klinton, R. Koen, K. Mahbubani, V. Mirshaymer, X. Morgentau, J. Nay, N. Russet, K. Tompson, K. Uoltz, R. Feldxam, M. Xoll, V. Yungblyud kabi olimlarning tadqiqot ishlari alohida o'rin tutadi.

YUNESKOning xalqaro faoliyati, BMT tizimidagi roli borasida, shuningdek, diplomatiyadagi yangi tendentsiyalar, "meros diplomatiyasi", "fan diplomatiyasi" kabi zamonaviy terminlarning mohiyati va ushbu diplomatiya turlarining vazifalari hamda nazariya va amaliyotda qo'llanishi J. Deyviyes, S. Kosma, T. Legrand, A. Negrusa, L. Porter, J. Raggi, R. Rus, D. Stoun, B. Steiner, V. Toader, M. Elfert, N. Fyodorov kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasida belgilangan "Sharq mamlakatlaridagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning o'ziga xos jihatlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta'siri" mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonning YUNESKO doirasidagi ko'p tomonlama diplomatiyasining o'ziga xos jihatlari va rivojlanish yo'nalishlarini ochib berish, ta'limni rivojlantirish va madaniy sohalardagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ko'p tomonlama diplomatiyaning mohiyati va konseptual asoslarini ochib berish, ko'p tomonlama diplomatiyani xalqaro munosabatlar nazariyalari va konseptsiyalari yordamida tahlil qilish;

O'zbekiston tashqi siyosatida YUNESKO bilan hamkorlikning ahamiyatini, o'zaro munosabatlarning shakllanish va rivojlanish dinamikasidagi o'ziga xosliklarni aniqlash;

O'zbekiston-YUNESKO munosabatlarining siyosiy-huquqiy asoslari va tashkiliy jihatlari tadqiq etish;

fan va ta'limni global darajada rivojlantirish, O'zbekiston madaniyati va san'atini dunyo va yosh avlodga tanitish orqali YUNESKONing jahonda doimiy tinchlikni qaror toptirish yo'lidagi ko'p tomonlama diplomatiyasini tahlil qilish;

O'zbekiston madaniy diplomatiyasida YUNESKO doirasida o'tkaziladigan xalqaro madaniy tadbirlarning o'rni va rolini ochib berish;

madaniy merosni saqlash, asrab-avaylash va tanitishda O'zbekiston va YUNESKO hamkorligining yutuq va muammolarini tizimlashtirish;

O'zbekiston va YUNESKO hamkorligini yanada rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyektini O'zbekistonning YUNESKO tashkiloti bilan ta'lim va madaniyat sohalaridagi hamkorligi tashkil qilgan.

Tadqiqotning predmeti O'zbekistonning YUNESKO doirasidagi ko'p tomonlama diplomatiyasining rivojlanish tendentsiyalari, O'zbekiston va YUNESKO hamkorligining bosqich va yo'nalishlaridan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada qiyosiy, muammoviy-xronologik, strukturaviy funksional, tizimli tahlil, kontent, iverent va boshqa ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekistonning xalqaro maydondagi tashqi siyosiy nufuzi va ishtirokini YUNESKO shafeligi vositasida kengaytirish, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni BMTning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanishi va uning raqamli fan, ta'lim, madaniyat va turizm salohiyatini har tomonlama targ'ib etishga qaratilgan ko'p tomonlama diplomatiyasi Samarqand shahrini YUNESKONing "Raqamli fan va turizm poytaxti" deb e'lon qilish lozimligi dalillangan;

xalqaro munosabatlarda davlatlararo ishonch inqirozining oshib borishi sharoitida YUNESKOGa a'zo davlatlar o'rtasida fan va sivilizatsiyalararo hamkorlikning o'zaro bog'liqlik va institutsional mexanizmlarini mustahkamlash, tashkilot oldida turgan dolzarb masalalarning ustuvor yo'nalishlari va strategik asoslarini zamon talablari asosida muvofiqlashtirish zarurati "UNESCO-2050" dasturini ishlab chiqish taklifiga ko'ra isbotlangan.

YUNESKONing diqqat-e'tiborini Markaziy Osiyo mintaqasiga faol va doimiy jalb etish, mintaqaning tarixiy va bugungi jozibasini har tomonlama targ'ib etish, mintaqaviy tashkilotlararo hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish, shundan kelib chiqib, O'zbekistonning ko'p tomonlama diplomatiyasini strategik darajada rivojlantirishga qaratilgan "YUNESKO+Markaziy Osiyo", "SHHT-YUNESKO", "TURKSOY-YUNESKO" muloqot formatlarini tashkil etish tashabbuslari dalillangan.

O'zbekiston va YUNESKO o'rtasida fan, ta'lim, madaniyat va turizm sohalaridagi hamkorlikda to'plangan ilg'or tajriba, O'zbekistonning ko'p tomonlama diplomatiyasi rivojida YUNESKONing o'rni va ahamiyatining tobora ortib borishi hamda xalqaro turizm, ta'lim va fan yutuqlaridan kelib chiqib, "fan diplomatiyasi", "turizm diplomatiyasi" va "ekologik diplomatiya" atamalaridan foydalanish zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xalqaro munosabatlarda kuzatilayotgan transformatsiya jarayonlari – davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda ro‘y berayotgan jiddiy o‘zgarishlar sharoitida ko‘p tomonlama diplomatiyaning tarkibida “meros diplomatiyasi” va “fan diplomatiyasi” atamalarini adabiyotlarda qo‘llash bo‘yicha konseptual takliflar ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston-YUNESKO munosabatlarining har tomonlama rivojlanishi, ta’lim, fan va madaniyat bilan bir qatorda, turizm sohaslarida hamkorlikni kengaytirishdagi ustuvor masalalar yuzasidan amaliy tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda foydalanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda tadqiqot natijalarining olimlar, ekspertlar tadqiqotlariga va YUNESKOning rasmiy manbalari asosida olinganligi, ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilib, buning natijalari vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlangani bilan ta’minlangan.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy* ahamiyati dissertatsiya materiallaridan siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlar, diplomatiya, xalqaro tashkilotlar, geosiyosat sohalari hamda fan yo‘nalishlari bo‘yicha darslik va qo‘llanmalar yozishda, tahliliy ma’lumotnomalar tayyorlashda, tashqi siyosatga doir tadqiqotlarda foydalanish mumkinligida ko‘rinadi.

Dissertatsiya natijalarining *amaliy ahamiyati* tegishli vazirlik va idoralar, oliy ta’lim muassasalarining mutaxassislari uchun tahliliy materiallar tayyorlash, ixtisoslashgan o‘quv yurtlarining dasturlarida, “Jahon siyosati”, “Xalqaro munosabatlar”, “Sharq mamlakatlarining xalqaro munosabatlari”, “Mintaqashunoslik”, “Diplomatiya asoslari”, “Xalqaro tashkilotlar” fanlarini o‘qitishda hamda tegishli yo‘nalishlarda tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligida ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonning ko‘p tomonlama diplomatiyasida YUNESKO bilan hamkorlik istiqbollari o‘rganish natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasida fan, ta’lim, madaniyat va turizm sohaslaridagi hamkorlikda to‘plangan ilg‘or tajriba, O‘zbekistonning ko‘p tomonlama diplomatiyasi rivojida YUNESKOning o‘rni va ahamiyatining tobora ortib borishi hamda xalqaro turizm, ta’lim va fan yutuqlaridan kelib chiqib, “fan diplomatiyasi”, “turizm diplomatiyasi” va “ekologik diplomatiya” atamalaridan foydalanish zarurati borasida olingan ilmiy natijalaridan madaniy tadbirlarning konsepsiyasini ishlab chiqish va ssenariylarini yozishda keng foydalanildi (*O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligining 2023-yil 13-iyundagi 04-12-04404-son ma’lumotnomasi*). Bu esa sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirish va amalda qo‘llashga xizmat qilgan.

Xalqaro munosabatlarda davlatlararo ishonch inqirozining oshib borishi sharoitida YUNESKoga a‘zo davlatlar o‘rtasida fan va sivilizatsiyalararo hamkorlikning o‘zaro bog‘liqlik va institutsional mexanizmlarini mustahkamlash, tashkilot oldida turgan dolzarb masalalarning ustuvor yo‘nalishlari va strategik

asoslarini zamon talablari asosida muvofiqlashtirish zarurati “UNESCO-2050” dasturini ishlab chiqish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasining tegishli qarorlarini tayyorlash jarayonida foydalanildi (*O‘zbekiston Oliy Majlisi Senati Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasining 2023-yil 14-iyundagi 24–12/3-son ma’lumotnomasi*). Bu esa mazkur sohaga oid axborot-tahliliy ma’lumotlarning ko‘payishiga xizmat qilgan. Natijada madaniy meros obyektlarini himoya qilish, ularga zarar yetkazilishiga qarshi kurashishning ilmiy asoslarini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

YUNESKOning diqqat-e’tiborini Markaziy Osiyo mintaqasiga faol va doimiy jalb etish, mintaqaning tarixiy va bugungi jozibasini har tomonlama targ‘ib etish, mintaqaviy tashkilotlararo hamkorlik mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, shundan kelib chiqib, O‘zbekistonning ko‘p tomonlama diplomatiyasini strategik darajada rivojlantirishga qaratilgan “YUNESKO+Markaziy Osiyo”, “SHHT-YUNESKO”, “TURKSOY-YUNESKO” muloqot formatlarini tashkil etishga oid ilmiy-tarixiy materiallardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan ayrim ko‘rsatuvlar ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yil 28-noyabrdagi 06-28-1779-son ma’lumotnomasi*). Natijada ushbu ma’lumotlar davlatimizning xalqaro maydondagi obro‘cini yanada ko‘tarish, madaniy-tarixiy merosni asrab-avaylash va dunyoga tanitishda qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qilgan.

O‘zbekistonning xalqaro maydondagi tashqi siyosiy nufuzi va ishtirokini YUNESKO shafeligi vositasida kengaytirish, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni BMTning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlanishi va uning raqamli fan, ta’lim, madaniyat va turizm salohiyatini har tomonlama targ‘ib etishga qaratilgan ko‘p tomonlama diplomatiyasi Samarqand shahrini YUNESKOning “Raqamli fan va turizm poytaxti” deb e’lon qilish lozimligi borasidagi ilmiy tavsiyalari Turizm qo‘mitasi faoliyatida amaliyotga joriy etildi (*O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 29-noyabrdagi 02-12-17-1802-son ma’lumotnomasi*). Bu esa tashqi siyosatda ko‘p tomonlama diplomatiyani rivojlantirish va yanada mustahkamlashning yangi yo‘nalishlarini joriy etilishiga, mavjudlarining ko‘lamini kengaytirish borasidagi muhim vazifalarni belgilab olinishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 15 ta ilmiy anjuman, jumladan ikkita xalqaro va 13 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 21 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta (5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda) ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning tadqiqot qismi 135 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarining asosiy ustuvor yo‘nalishlari bilan mosligi, tadqiq qilinayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi aniqlangan. Ilmiy tadqiqot usullari, olingan natijalarining ishonchliligi asoslangan holda, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiya va e‘lon qilingan ishlar to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan, ishning tuzilishi va hajmi ko‘rsatilgan.

Tadqiqotning **“O‘zbekiston-YUNESKO munosabatlarini tadqiq etishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ko‘p tomonlama diplomatiyaning nazariy jihatlari, uni amalga oshirishning institutsional asoslari, O‘zbekiston-YUNESKO hamkorligi va tashkiliy-huquqiy jihatlari tadqiq etilgan. *Ko‘p tomonlama diplomatiyaning nazariy jihatlari* deb nomlangan *birinchi paragrafda* diplomatiyaning bugungi dolzarb shakli, ko‘p tomonlama diplomatiyaning mohiyati va istilohdagi ahamiyati o‘rganilgan. Tarixi konferensiyalar, kongresslar bilan boshlangan ushbu diplomatiya turi Millatlar Ligasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) kabi global xalqaro tashkilotlar tuzilishi bilan quyidagi turlarga ajralgani ma‘lum bo‘ldi: *konferension-davriy ko‘p tomonlama diplomatiya, maxsus masalalar bo‘yicha muzokaralar jarayonidagi muvaqqat ko‘p tomonlama diplomatiya, xalqaro tashkilotlar doirasidagi doimiy ko‘p tomonlama diplomatiya.* Ko‘p tomonlama diplomatik munosabatlar xalqaro huquq prinsiplari va normalari, xalqaro tashkilotlarning nizom va maxsus qoidalari bilan tartibga solinadi. Ko‘p tomonlama aloqalarning samaradorligi tegishli qoidalarga doimiy ravishda amal qilinishiga bog‘liq.

YUNESKO doirasidagi ko‘p tomonlama aloqalar natijasida O‘zbekiston diplomatik amaliyoti va faniga “meros diplomatiyasi”, “fan diplomatiyasi” kabi tushunchalar kirib keldi. Ushbu paragrafda ularning xususiyatlari, ahamiyati o‘rganildi. Olimlarning ikki va ko‘p tomonlama diplomatiyaga oid tadqiqot natijalarini o‘rganish natijasida quyidagi ta‘rifni taklif qilish mumkin: *ko‘p tomonlama diplomatiya* uch va undan ortiq davlatlarning umumiy maqsad yo‘lida xalqaro tashkilotlar va konferensiyalar doirasida amalga oshiradigan hamkorligini o‘zida mujassam etuvchi, qadimdan shakllanib kelgan dolzarb diplomatik munosabatlardir.

Dissertatsiyada ko‘p tomonlama diplomatiyaning xalqaro munosabatlardagi o‘rni va roliga oid nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Masalan, *liberal institutsionalizm* nazariyasining vakillari davlatlarning turli masalalarda guruh bo‘lib faoliyat yuritishlari bugungi globallashuv davrining zaruriy shartlaridan biri ekanligini ta‘kidlaydilar. Ular ko‘p tomonlama diplomatiyaning tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashdagi rolini BMT hamda uning tizimidagi tashkilot va muassasalar doirasida ko‘rib chiqib, global muammolarni hal qilish va tahdidlarni bartaraf etishda undan foydalanish orqali kutilgan natijaga erishish ehtimolligini

oshirishi haqida fikr bildiradi. *Realizm yondashuvi* vakillarining dunyodagi siyosiy vaziyat murakkablashib, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nihoyatda kuchaygan bugungi sharoitda qo'llanishi mumkin bo'lgan ko'p tomonlama diplomatiyaning muhim vositalardan biri haqidagi qarashlari G. Morgentauning "Davlatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar: hokimiyat va tinchlik uchun kurash" asarida bayon etilgan³. Unda ko'p tomonlama diplomatiya, an'anaviy ikki tomonlama diplomatiyadan farqli o'laroq, davlatlar turli maqsadlarini birgalikda amalga oshirishining oson yo'llaridan ekanligi ko'rsatilgan. *Neorealizm* oqimining vakillaridan bo'lgan Kennet Uolts xalqaro munosabatlar transformatsiyaga uchraganida muayyan davlat hududi bilan cheklanib qolmagan har qanday masala umumiy ekanligini e'tirof etgan holda jahon siyosatida ko'p tomonlama hamkorlikning ahamiyati kuchayishini ta'kidlagan⁴.

J. Nay o'z asarlarida *neoliberal konstruktivizmning* xalqaro munosabatlar doirasidagi ahamiyati va asosiy jihatlarini yoritgan⁵. Ushbu nazariya vakili bo'lgan Robert Koxeyn o'zining "Kuch va o'zaro bog'liqlik: o'tish davridagi jahon siyosati" hamda "Gegemoniyadan keyin: jahon siyosiy iqtisodidagi hamkorlik va kelishmovchilik"⁶ nomli asarlari ushbu nazariyaning mazmun-mohiyatini ochib beruvchi klassik adabiyotlardan hisoblanadi. Ularda muallif davlatlar xalqaro maydonda o'z kuch va harbiy maqsadlariga muvofiq faoliyat yuritibgina qolmay, balki xalqaro munosabatlarning boshqa ishtirokchilari bilan murakkab o'zaro aloqalarga ham kirishishlarini, davlatlararo hamkorlikni mustahkamlash va osonlashtirishda xalqaro institutlarning ahamiyatini bayon etadi.

O'zbekiston tashqi siyosatida YUNESKOning o'rni va roli deb nomlangan *ikkinchi paragrafda* jahonda turli xavf-xatarlar kuchayib borayotgan sharoitda YUNESKO bilan hamkorlik unga a'zo davlatlar tashqi siyosatida ulkan ahamiyatga egaligi ochib berilgan. O'zaro yaqin aloqalar natijasida turli sohalarda erishilgan yutuqlar bu hamkorlik jadal rivojlanayotganidan dalolat bermoqda. YUNESKOning navbatdagi yig'ilishi Samarqand shahrida o'tkazilishi haqida qaror chiqarilgani ham buni yaqqol tasdiqlaydi⁷.

Dissertatsiyada O'zbekistonning bugungi tashqi siyosatida YUNESKO vektorining ahamiyatini izchil o'rganishda davlatning boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi, xususan, TURKSOY tashkiloti bilan munosabatlari qiyosiy tahlil qilindi. Buning natijasida, "TURKSOY–YUNESKO", shuningdek, "SHHT–YUNESKO" kabi muloqot formatlarini tashkil qilish YUNESKOning Markaziy

³ Morgenthau H. J., Thompson K. W., Clinton W. D. Politics among nations: The struggle for power and peace. — Ilaxap, 1985. — P. 299.

⁴ Waltz Kenneth N. Theory of International Politics. — New York: McGraw Hill, 1979. — P. 210.

⁵ Joseph, Jr. Nye. Bound to Lead: The Changing Nature of American Power. — New York: Basic Books. Inc., 1990. — P. 328 p.)

⁶ Robert O. Keohane, Joseph S. Nye. Power and Interdependence. — 2nded. — Cambridge: Harper Collins publishers, 1989. — P. 315(355).; Robert O Keohane. After hegemony: Cooperation and discord in the world political economy. — New Jersey: Princeton university press, 2005. — P. 200-210(290).

⁷ Qirq yildan ortiq vaqt davomida ilk bor YUNESKO Bosh assambleyasining sessiyasi Parij shahridan tashqarida o'tkaziladigan bo'ldi. 23.11.2023 // Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi rasmiy sayti. — URL: <http://nhrc.uz/uz/news/qirq-yildan-ortiq-vaqt-davomida-ilk-bor-yunesko-bosh-assambleyasining-sessiyasi-parij-shahridan-tashqarida-otkaziladigan-boldi>.

Osiyo mintaqasidagi faoliyatini jadallashtirish, u orqali mintaqaning tarixiy va bugungi jozibasini keng targ'ib etish, tashkilot faoliyati yo'nalishida ushbu hududda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hamda ko'p tomonlama diplomatiyani izchil rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda katta ahamiyatga egaligi aniqlandi.

O'zbekistonning YUNESKO bilan hamkorligi uning ko'p tomonlama diplomatiyasida katta ahamiyatga ega bo'lib, munosabatlarni davlat kesimida yuritish va rivojlantirishga qaratilgan ikki tomonlama aloqalarning jadallashib borayotgani kuzatilmoqda. Masalan, 1993–2006-yillarda YUNESKO va O'zbekiston o'rtasidagi ko'p tomonlama diplomatiya hamda hamkorlikning poydevori yaratildi. 2006–2016-yillarda o'zaro munosabatlarda o'ziga xos turg'unlik kuzatildi. 2017-yildan buyon davom etayotgan hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining YUNESKO doirasidagi ko'p tomonlama diplomatiyasi jadal rivojlanib bormoqda.

YUNESKO huzurida tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasining vakolatxonasida davlat o'zining doimiy vakili orqali turli sohalarda faoliyat yuritadi va bu o'zaro aloqalarning yaqinligi darajasini ko'rsatuvchi yana bir omil hisoblanadi. Javohirla'l Neru ta'biri bilan aytganda, “insoniyatning vijdoni”⁸ hisoblangan YUNESKOning asosiy vazifasi gumanitar sohalarda adolat, qonuniylik, inson huquqlari hurmat qilinishini ta'minlash yo'lida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, odamlar ongiga tinchlikni qadrlash g'oyalari va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishdan iborat⁹.

Dunyo voqealarining rivoji davlat manfaatlarini, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda siyosiy va iqtisodiy kelishuvlarning o'zi yetarli emasligini ko'rsatdi. Davlat xavfsizligini ta'minlash va boshqa birlamchi huquqlar hurmat qilinishi uchun o'zaro munosabatlar doirasida madaniy sohadagi hamkorlik va kelishuvlarni jadallashtirish, tinchlik yo'lida fan va ta'limni isloh etish ham nihoyatda muhim. Xalqaro munosabatlarga madaniyatni jalb qilish milliy madaniyatlarning o'ziga xosligini saqlab qolish imkonini beradi. Buning natijasida madaniyatlararo munosabatlar yaxshilanib, madaniy merosni asrab-avaylashga qaratilgan sa'y-harakatlarning ta'sirchanligi oshishi uchun sharoit yuzaga keladi¹⁰. Ya'ni bugungi davlatlarning har tomonlama hamkorligida bu jihatlar chambarchas bog'liq ekani ma'lum bo'ldi. YUNESKOning 80 yillik tarixi uning oldida turgan bugungi o'ta muhim vazifalar nihoyatda dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Birinchi bobning *uchinchi paragrafida O'zbekiston va YUNESKO munosabatlari shakllanishining tashkiliy-huquqiy jihatlarini* o'rganilgan. YUNESKO o'z mandatiga kiruvchi sohalardagi dastur va loyihalarni ikki asosiy vosita orqali amalga oshiradi. Bular: YUNESKOning a'zo davlatlardagi vakolatxonalari va

⁸ Халқ сўзи. – 2018 йил. – 8 окт. – URL: <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-prezidenti-yunesko-bosh-direktori-bilan-uchrashdi>

⁹ ЮНЕСКО халқаро меъёрий ҳужжатлари. – Т.: Адолат, 2004. – Б. 27.

¹⁰ Пулатова С.А. Вхождение Республики Узбекистан в международное культурное пространство и становление культурной дипломатии в годы независимости // Халқаро муносабатлар. Международные отношения. International affairs. – 2019. – № 2. – С. 76–85.

Milliy komissiyalaridir. A'zo davlatlar esa YUNESKO bilan hamkorlikni yuqorida keltirilgan ikki tuzilma hamda tashkilot qoshidagi doimiy vakolatxonalari vositasida amalga oshiradilar. YUNESKONing O'zbekistondagi faoliyati uning Toshkentdagi vakolatxonasi, Parijdagi bosh qarorgohi, Bangkok va Jakartada joylashgan mintaqaviy vakolatxonalari, Olmaotada tashkil etilgan klaster vakolatxonasi hamda YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi bilan yaqin hamkorlikda amalga oshiriladi. YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi 2001-yil dekabr oyida YUNESKONing "Tinchlik ishlari uchun" nishoni bilan taqdirlangan.

YUNESKO va O'zbekiston o'rtasidagi bugungi hamkorlik Prezident Shavkat Mirziyoyev 2018-yil oktyabr oyida YUNESKO bosh qarorgohida imzolagan "O'zbekiston va YUNESKO o'rtasidagi 2018–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar rejasi" hamda "2022–2026-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi" asosida amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, BMT tizimidagi barcha ixtisoslashgan tashkilotlar a'zo davlatlar bilan hamkorlikni BMTning davlatlar kesimidagi va davriy Barqaror rivojlanish dasturlari (BRM)ga muvofiq amalga oshiradilar. Hozirgi vaqtda BMTning O'zbekiston uchun 2021–2025-yillarga mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari sohasida hamkorlik bo'yicha hadli dasturi (United Nations Sustainable Development Cooperation Framework 2021–2025 for Uzbekistan) amaldagi dastur hisoblanadi¹¹.

YUNESKONing faoliyati uchta organ – *Bosh konferensiya, Ijroiya kengashi* hamda *Strategik boshqaruv kengashi* – tomonidan yuritiladi¹². YUNESKONing O'zbekistonga qiziqishi Sovet Ittifoqi davridayoq yuzaga kelgan edi. Xorijiy tadqiqotlarda O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlari Sovet Ittifoqi tarkibida Konstitutsiya darajasida ramziy tashqi siyosiy tashabbus huquqiga ega bo'lgani tarixiy fakt sifatida keltiriladi¹³. O'zbekiston YUNESKOGa a'zo davlatlar safiga rasman qo'shilgan davrdan e'tiboran ularning o'zaro munosabatlariga tashkiliy va huquqiy asos solindi.

YUNESKONing imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish hamda o'zaro munosabatlardagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun keng ko'lamli islohotlar o'tkazish jadallashib bormoqda. Shuningdek, yurtimiz olimlari asarlarining tahlili O'zbekiston va YUNESKO hamkorligining hozirgi davri va rivoji borasida maxsus tadqiqot o'tkazilmaganini ko'rsatdi. M. Rahimovning "1991–1999-yillarda O'zbekiston Respublikasining BMT ixtisoslashgan tashkilotlari bilan hamkorligi (YUNESKO misolida)" nomzodlik dissertatsiyasi hamda A. Mo'minov va

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga muvofiq ushbu dasturni amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzilgan. Qarang: URL: <https://lex.uz/docs/5870397>; 2. URL: <https://uzbekistan.un.org/en/94416-united-nations-sustainable-development-cooperation-framework-2021-2025-uzbekistan>.

¹²Elektron manbalar. – URL: <https://www.unesco.org/en/legal-affairs/governing-bodies>, 2. <https://www.unesco.org/en/strategic-managementboard>.

¹³ Porter Louis H. Cold war internationalisms: The USSR in UNESCO, 1945-1967: Dissertation for the degree of Doctor of Philosophy in historical sciences. / The University of North Carolina at Chapel Hill, 2018. – P.24-75

M. Xashimovning tadqiqot ishlarida esa mustaqillikning ilk davridagi ilmiy-texnikaviy, ta'limga oid va boshqa gumanitar hamkorlik aloqalari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **O'zbekiston–YUNESKO munosabatlarning gumanitar jihatlar** nomli ikkinchi bobida YUNESKO faoliyatida ta'limning o'rni, ushbu tashkilotning ta'limni global miqyosda rivojlantirish faoliyati tahlil qilingan. Ta'lim sohasini rivojlantirish YUNESKO faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, BMT tomonidan ta'lim sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan islohotlar YUNESKO zimmasiga yuklangan.

Ta'limni global darajada rivojlantirish – YUNESKO faoliyatining ustuvor yo'nalishi nomli paragrafda YUNESKOning fan va ta'lim sohasidagi ishlariga doir statistik ma'lumotlar, hisobot va ma'ruzalar, shuningdek, tashkilot deyarli bir asrlik faoliyati natijasida to'plagan tajribasidan kelib chiqib, a'zo davlatlar bilan ko'p tomonlama hamkorlik qilish borasida chiqargan xulosalarni yorituvchi axborot bilan ta'minlashga qaratilgan hamda tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lgan hujjatlar o'rganildi. YUNESKO tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida ta'limni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- kelajak uchun ta'lim, fan va madaniyat, kommunikatsiya sohaslarida foydali tadqiqotlar olib boradi;

- bilimni tadqiqotlar, treninglar va o'qituvchilik faoliyati orqali rivojlantiradi va bo'lishadi;

- davlatlarning qonunchiligi hamda ichki hujjatlarini tayyorlash va qabul qilishda qonun ijodkorligi faoliyati bilan shug'ullanadi;

- a'zo davlatlar bilan ularning rivojlanish siyosatiga oid loyihalar borasida texnik hamkorlikni amalga oshiradi;

- maxsus ma'lumotlar almashinuvini amalga oshiradi¹⁴.

Ta'limga ham moliyaviy, ham professional, davomiy e'tibor ko'rsatish qo'yilgan maqsadga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. YUNESKO tashkilotining rasmiy nashrlarida ta'lim-tarbiya barcha davlatlar va butun Yer shari aholisining barqarorligini, hamma sohalarda ijobiy natijalarga erishish yoki ularni rivojlantirishning yagona vositasi ekanligi takrorlanadi. BMT tomonidan 2015-yildan boshlab amalga oshirilayotgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) dasturi yer yuzida inson farovonligi uchun ishlab chiqilgan hujjat hisoblanadi. Unda 17 ta maqsad va 169 ta vazifa nazarda tutilgan bo'lib, "Umumqamrovli va adolatli-sifatli ta'limni ta'minlash hamda barchaga butun umri davomida ta'lim olishni rag'batlantirish" deb nomlangan 4-maqsadni 2030-yilgacha global miqyosda amalga oshirish belgilangan. Ushbu maqsadga erishish uchun uchta kichik maqsad va yettita vazifa YUNESKoga yuklatilgan.

YUNESKO ta'limni hech bir istisnosiz barcha uchun zarur bo'lgan butun bir tizim sifatida yo'lga qo'yish taklifini ilgari suradi. Tashkilot Nizomining 1-moddasida YUNESKO faoliyatining mazmun-mohiyati va a'zo davlatlar bilan hamkorlik qilish maqsadi batafsil yoritilgan. Bunda, avvalo, a'zo davlatlarning

¹⁴ Using ISCED Diagrams to Compare Education Systems. – Paris: Published by UNESCO Institute for Statistics, 2021. – P. 29-59.

madaniyati va ta'lim tizimini rivojlantirish dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning asosiy vositasi sifatida ko'rsatilgan. YUNESKO a'zo davlatlarning hukumatlari va boshqa hamkorlarga ikki tomonlama ko'maklashadi:

birinchidan, faol ijtimoiy hayotdan chetlashgan guruhlarni (masalan, xotin-qizlar va boshqa ijtimoiy ahvoli nochor aholi qatlamlarini) qamrab oluvchi hamda ularga sifatli ta'lim olish imkonini yaratuvchi inklyuziv, ya'ni har qanday diskriminatsiyadan xoli, teng huquqlilikka asoslangan dasturlar tuzish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishda;

ikkinchidan, ushbu dastur va chora-tadbirlarni inklyuziv o'quv rejalarida, ta'lim jarayonlarida amalga oshirishda.

Bundan tashqari, YUNESKO ta'lim olish huquqini mustahkamlash, bunga katta yoshdagilarni ham jalb etish (tadqiqot va hisobotlar tahlili nafaqat kichik, balki katta yoshdagilarning ham savodxonligi hanuzgacha past ekanligini ko'rsatdi), ta'lim tizimini tom ma'noda demokratlashtirish kabi global darajadagi vazifalarni bajarib kelmoqda. Buning uchun Tashkilot 1976-yilda YUNESKO Bosh konferensiyasi tomonidan qabul qilingan, 2015-yilda esa yangilangan "Katta yoshdagilar ta'limini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar (Nayrobi, 1976/2015)" hamda 1949-yildan buyon har 12 yilda o'tkazib kelinayotgan "CONFINTEA" xalqaro konferensiyalar orqali katta yoshdagilarning ta'lim olish huquqini demokratlashtirish va butun umr davomida ta'lim olish imkoniyatlarini kuchaytirish ishlarini olib boradi¹⁵.

Shu bilan birga, YUNESKO tarafidan ta'limda va ta'lim orqali gender tenglikni ta'minlash maqsadida 2019–2025-yillar uchun "Imkoniyatdan — uni kengaytirish tomon"¹⁶ strategiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda qo'yilgan maqsadga erishishning quyidagi uchta asosiy vositasi belgilangan: *chora-tadbirlar uchun aniq axborot ta'minoti, huquqlarni targ'ib qilishda yanada takomillashgan huquqiy, siyosiy va boshqa chora-tadbirlar, imkoniyat va shart-sharoitlarni yaxshilash uchun o'qitish va o'rganish amaliyotidan iborat*. YUNESKOning bu va boshqa strategiyalaridan ko'zlangan maqsad – global miqyosda qiz va o'g'il bolalar, ayol va erkaklarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish uchun teng huquq va imkoniyatlar, shuningdek, ularning hayoti va kelajagini shakllantirishga xizmat qiluvchi sharoitni ta'minlaydigan muhit yaratish.

YUNESKO o'z faoliyati doirasida bir qator vazifalarni bajararkan, fan va ta'limni eng ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etadi, global miqyosda "fan diplomatiyasi"ni amalga oshiradi; ta'lim har bir davlat byudjetida birinchi darajali yo'nalishlardan biriga aylansagina, BMT va YUNESKO oldiga qo'yilgan "Ta'lim barcha uchun" strategiyasi amalga oshishi mumkin, degan xulosaga keladi.

Ushbu bobning *O'zbekiston-YUNESKO munosabatlarida fan va ta'limning rivojlanish tendensiyalari* nomli *ikkinchi paragrafi* bevosita YUNESKO va

¹⁵ *Elfert M.* Lifelong learning in Sustainable Development Goal 4: What does it mean for UNESCO's rights-based approach to adult learning and education? // *International Review of Education*. – 2019. – № 65(4). – P. 537–556.

¹⁶ From access to empowerment. UNESCO strategy for gender equality in and through education 2019–2025. – URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000369000>

O‘zbekistonning ta’lim sohasidagi hamkorligiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ikki tomonning bu yo‘nalishdagi 30 yillik diplomatik aloqalari va ularning natijalari ko‘rib chiqilgan. Ta’lim doimiy e’tibordagi gumanitar soha bo‘lishi lozim, chunki uni rivojlantirish fuqarolarning hayot sifatini yuksaltirish, umuman, jamiyatning mustahkam va xavfsiz kelajagini ta’minlashga imkon beradi. Dissertatsiyada ta’lim sohasidagi hamkorlik doimiy va ilgari rivojlantirilishi zarurligi haqida xulosasi chiqarilgan. Ta’limni isloh qilish va rivojlantirish doimiy jarayon bo‘lib, O‘zbekiston bu borada YUNESKO bilan hamkorlikni uzluksiz davom ettirmoqda.

O‘zaro munosabatlarning ilk bosqichida asos solingan mustahkam hamkorlik ta’lim sohasiga ham tegishli bo‘lib, O‘zbekistonda erta yoshdagi va bog‘cha davri, umumiy o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim hamda oliy ta’limdan keyingi katta yoshdagi fuqarolar ta’limini qamrab olgan uzluksiz tizimning o‘ziga xos jihatlari mavjud. O‘zbekiston YUNESKO orqali boshqa davlatlar bilan o‘rtadagi tafovutlar hamda bularning barchasini tartibga solish borasida hamkorlik qiladi va o‘zaro tajriba almashadi.

YUNESKO BMT tizimida davlatlar o‘rtasida bir qator sohalarda hamkorlik o‘rnatish orqali Yer yuzida tinchlik hukmron bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiluvchi xalqaro tashkilot hisoblanadi. Bugungi ilmiy manbalarda yana bir qiziq tushuncha – “fan diplomatiyasi” tushunchasi mavjud bo‘lib, u hozirgi muammolarni hal qilishning kuchli vositalaridandir. YUNESKO ana shu maqsadga erishish yo‘lida ayni damda O‘zbekiston va boshqa a’zo davlatlar bilan 80 yilga yaqin davr mobaynida fan diplomatiyasini amalga oshirib kelmoqda.

Oliy ta’lim tizimida YUNITVIN (nomi ingliz tilidan UNIVERSITY va TWIN – universitet va egizak so‘zlarining qisqartmasidan tashkil topgan) dasturi YUNESKOning global darajada OO‘Yulari o‘rtasida akademik almashinuvini, universitetlar salohiyatining global mobilligini ta’minlash maqsadida tuzilgan.

YUNESKO ta’limni global rivojlantirishda turli davlatlar homiyligi ostida quyidagi grant va dasturlarni e’lon qilib boradi:

- Qizlar va ayollar ta’limi sohasidagi yutuqlari uchun YUNESKO mukofoti;
- Barqaror rivojlanish uchun ta’lim bo‘yicha YUNESKO-Yaponiya mukofoti;
- O‘qituvchilarning samaradorligini oshirishdagi faoliyati va natijalari uchun YUNESKO-Hamdan bin Rashid al-Maktum mukofoti;
- Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangani uchun YUNESKO-Qirol Xamad bin Iso al-Xalifa mukofoti;
- YUNESKOning xalqaro savodxonlik mukofotlari: Savodxonlikni yoyishda qirol Sejong nomidagi YUNESKO mukofoti va Konfutsiy nomidagi YUNESKO mukofoti kabilardir.

Shu o‘rinda dunyoning 50 dan ortiq davlatlarida bo‘lib, tadqiqot olib borgan o‘zbekistonlik olim Dilfuza Egamberdiyeva 2023-yilda o‘zining mikrobiologiya sohasidagi tadqiqotlari uchun jahonning nufuzli YUNESKO-Karlos Finley mukofoti bilan taqdirlanganini keltirib o‘tish joiz. Bu olim olgan birinchi mukofot emas. 2006-yilda u ilmiy tadqiqot sohasidagi L’oreal-YUNESKO ayollar stipendiyasi va AQSH Mikrobiologiya jamiyatining mukofoti bilan taqdirlangan.

2013-yilda u YUNESKOning bo‘limi hisoblanuvchi Rivojlanayotgan dunyo fanlar akademiyasining qishloq xo‘jaligi fanlari sohasidagi mukofotiga sazovor bo‘lgan. Shuningdek, 2019-yilda “Yilning eng yaxshi olimi” sifatida “Scopus” mukofotiga sazovor bo‘lgan¹⁷.

Samarqand shahrida joylashgan Markaziy Osiyo xalqaro tadqiqotlar instituti (MOXTI)ning faoliyati ilm-fan yo‘nalishida O‘zbekiston va YUNESKO hamkorligining natijalaridan biri hisoblanadi. Markaziy Osiyo mintaqasidagi moddiy va nomoddiy madaniy meros, uning tarixi, o‘ziga xosligi va muhofazasi kabi ko‘plab sohalarda olimlarning o‘zaro bilim almashishini ta‘minlovchi va ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi va loyihalarni yurituvchi yagona institut hisoblanadi. Uning xodimlarini nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo davlatlaridagi bir qator olimlar tashkil qiladi. Ozarbayjon, Eron, Qozog‘iston, Xitoy, Koreya, Qirg‘iziston, Mo‘g‘uliston, Pokiston, Hindiston, Turkiya ana shular jumlasidandir¹⁸.

YUNESKO va O‘zbekistonning ta‘lim sohasidagi hamkorligi 30 yildan buyon davom etadi. Umuman, ilm-fan va ta‘lim tizimini rivojlantirish borasidagi O‘zbekiston-YUNESKO hamkorligi uzoq va davomiy faoliyatni taqozo etadi. Aslida, ilm-fanni isloh etishga qaratilgan hamkorlik maqsadi uzviylik va mahsuldorlikni saqlash, vazifalar va rejalarni doimiy ravishda ko‘rib chiqish hamda zamon va imkoniyatlarga moslashtirib turish chora-tadbirlaridan iborat jarayon hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston va YUNESKOning madaniy diplomatiya taraqqiyoti yo‘lidagi hamkorligi”** nomli uchinchi bobining *“YUNESKO shafeligidagi xalqaro tadbirlar – O‘zbekiston madaniy diplomatiyasining mexanizmi”* nomli *birinchi paragrafida* xalqaro madaniy tadbirlarning davlatlararo munosabatlar va diplomatiyadagi ortib borayotgan ijobiy jihatlari hamda rivojlantirilishi lozim bo‘lgan taraflari ochib berilgan. O‘zbekiston YUNESKO bilan hamkorlikda xalqaro tadbirlar o‘tkazish borasida noyob tajribaga ega bo‘lib, bu yo‘nalishdagi munosabatlarning ilgarilab borayotganini tashkilotning so‘nggi yillardagi samarali faoliyati va turli tadbirlarning aynan O‘zbekiston bilan hamkorlikda o‘tkazilayotgani ham tasdiqlamoqda.

